Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 2 No. 1 (2025) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va yuqori i... DOI: 10.5281/zenodo.24317783

7.https://oz.sputniknews.uz/20241018/mirziyoev-2025-yil-makroiqtisodiy-korsatkichlar-46186667.html
8. O’zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi https://stat.uz/uz/
9. O’zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika agentligi https://stat.uz/uz/

IQTISODIY DAVRLAR: TSIKLLAR, SABABLARI VA OQIBATLARI

Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna
TDIU Andijon fakulteti o’qituvchisi
Miraxmatova Arofatxon Muhtorjon qizi
TDIU Andijon fakulteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz iqtisodiy davrlar — ya’ni iqtisodiyotda muntazam takrorlanib turadigan ko‘tarilish va pasayish bosqichlari mohiyatini tahlil qildik. Iqtisodiy tsiklning asosiy bosqichlari bo‘lmish ko‘tarilish, inqiroz, cho‘kish va tiklanish jarayonlari misollar asosida yoritildi. Har bir bosqichning iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri, bandlik darajasi va ishlab chiqarish hajmidagi o‘zgarishlar tahlil qilindi. Maqolada iqtisodiy davrlarning yuzaga kelishiga olib keluvchi omillar, jumladan, talab va taklifdagi nomutanosiblik, investitsiyalardagi o‘zgarishlar, kredit siyosati va tashqi iqtisodiy muhit kabi omillar alohida ko‘rib chiqildi. Tarixiy jihatdan muhim bo‘lgan Buyuk depressiya va 2008 yilgi moliyaviy inqiroz misolida tsikllarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari ko‘rsatildi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyotida kuzatilgan ayrim iqtisodiy holatlar ham tahlil qilinib, davlat tomonidan ko‘rilgan choralar yoritildi. Xulosa sifatida, iqtisodiy tsikllarni chuqur anglash va samarali boshqaruv choralarini qo‘llash orqali barqaror rivojlanishga erishish imkoniyati mavjudligi ta’kidlandi.

Kalit so‘zlar Iqtisodiy davrlar, iqtisodiy tsikl, ko‘tarilish, cho‘kish, inqiroz, tiklanish, eksternal omillar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, bandlik darajasi, investitsiya faoliyati, kredit siyosati, talab va taklif, iqtisodiy beqarorlik, global moliyaviy inqiroz, buyuk depressiya, o‘zbekiston iqtisodiyoti, davlat siyosati, barqaror rivojlanish, fiskal siyosat, monetar siyosat.

Аннотация: В данной статье мы проанализировали экономические циклы, то есть регулярные колебания в экономике, выражающиеся в фазах роста и спада. Основные этапы экономического цикла, такие как подъем, кризис, спад и восстановление, были рассмотрены с примерами. Описано влияние каждого этапа на экономические показатели, уровень занятости и объем производства.

Published: 24.05.2025
Cite this article: Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna, Miraxmatova Arofatxon Muhtorjon qizi (2025). Iqtisodiy davrlar: tsikllar, sabablari va oqibatlari. Emro Science and Education, 2(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24317783
© 2025 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Также были рассмотрены причины возникновения экономических циклов, такие как дисбаланс спроса и предложения, изменения в инвестиционной активности, кредитная политика и внешнеэкономическая ситуация. В статье использованы исторические примеры, такие как Великая депрессия и мировой финансовый кризис 2008 года, для анализа социальных и экономических последствий циклов. Кроме того, в статье проанализированы экономические процессы в Узбекистане, а также меры, принимаемые государством для стабилизации экономики. В заключении подчеркивается важность глубокого понимания экономических циклов и эффективного применения соответствующих мер для достижения устойчивого развития.

Ключевые слова: экономические циклы, экономический цикл, подъем, спад, кризис, восстановление, внешние факторы, экономические показатели, уровень занятости, инвестиционная активность, кредитная политика, спрос и предложение, экономическая нестабильность, глобальный финансовый кризис, Великая депрессия, экономика Узбекистана, государственная политика, устойчивое развитие, фискальная политика, монетарная политика..

Annotation: This article analyzes economic cycles, which refer to the regular fluctuations in the economy, characterized by phases of growth and contraction. The main stages of the economic cycle, including expansion, crisis, recession, and recovery, are examined with examples. The impact of each phase on economic indicators, employment rates, and production volumes is discussed. The article also explores the causes behind economic cycles, such as imbalances in supply and demand, changes in investment activity, credit policies, and external economic conditions. Historical examples, such as the Great Depression and the 2008 global financial crisis, are used to illustrate the social and economic consequences of these cycles. Additionally, the article analyzes economic trends in Uzbekistan and the measures taken by the government to stabilize the economy. In conclusion, the importance of a deep understanding of economic cycles and the effective implementation of relevant policies to achieve sustainable development is emphasized.

Keyword: Эconomic cycles, economic cycle, expansion, recession, crisis, recovery, external factors, economic indicators, employment rate, investment activity, credit policy, supply and demand, economic instability, global financial crisis, Great Depression, Uzbekistan's economy, government policy, sustainable development, fiscal policy, monetary policy.

Iqtisodiy davrlar — bu iqtisodiyotda takrorlanuvchi o‘sish va pasayish bosqichlari bilan tavsiflanadigan holat bo‘lib, ular tsikllar tarzida yuz beradi. Har bir

iqtisodiy tizimda vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy faollikning o‘zgarishi tabiiy hodisa hisoblanadi.

Iqtisodiy tsikl tushunchasi

Iqtisodiy tsikl — bu yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmining va umumiy iqtisodiy faollikning vaqt bo‘yicha o‘zgarishini aks ettiruvchi davriy jarayondir. Iqtisodiy tsikl odatda to‘rt bosqichdan iborat:

Iqtisodiy davrlar (Tsikllar)

Iqtisodiy tsikl yoki iqtisodiy davrlar iqtisodiyotda ma’lum vaqt oralig‘ida takrorlanib turadigan ko‘tarilish va pasayish bosqichlaridir. Iqtisodiy tsiklning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. **Ko‘tarilish (Expansion)**

➢ Iqtisodiy faoliyatning o‘sishi, ishlab chiqarish va ish o‘rinlarining ko‘payishi.

➢ Daromadlar ortadi, inflyatsiya darajasi o‘sishi mumkin, bandlik oshadi.

➢ Sarmoyalar va iste’mol harajatlari ko‘payadi.

Formulalar:

- Y = C + I + G + (X - M)
- Y = real GDP (ya'ni real yalpi ichki mahsulot)
- C = iste'mol xarajatlari
- I = investitsiyalar
- G = davlat xarajatlari
- X - M = eksport va importning farqi (tashqi savdo)

2. **Cho‘kish (Peak)**

➢ Iqtisodiy faoliyat o‘zining eng yuqori darajasiga yetadi.

➢ Iqtisodiy o‘sishning turg‘unligi kuzatiladi, lekin ortiqcha talab inflyatsiyaga olib kelishi mumkin.

Formulalar:

- Iqtisodiy o‘sish sur'ati (GDP o‘sish sur'ati) past darajaga tushadi.
- S = I + (G - T)
- S = jamiyatning jamg‘arma miqdori
- I = investitsiyalar
- G - T = davlat xarajatlari va soliqlar orasidagi farq

3. **Inqiroz (Recession)**

➢ Iqtisodiyotning pasayishi, ishlab chiqarishning kamayishi, bandlikning tushishi.

➢ Mahsulotlar va xizmatlarga bo‘lgan talab pasayadi, korxonalar yopiladi.

➢ Hamma sohalarda iqtisodiy inqiroz kuchayadi.

Formulalar:

• Iqtisodiy inqirozda Y = C + I - (X - M) formasi ishlamay qolishi mumkin, chunki barcha elementlar salbiy o‘zgarishlar ko‘rsatishi mumkin.

4. **Tiklanish (Recovery)**

➢ Iqtisodiyotning turg‘unlashtirilgan holatdan qaytib, o‘sish bosqichiga o‘tishi.

➢ Yangi ish o‘rinlari yaratiladi, ishlab chiqarish va investitsiyalar ko‘payadi.

Formulalar:

• Y = C + I + G + (X - M), bu yerda iqtisodiy faollik yuqoriga qarab tiklanadi, bu esa jamiyatning ko‘proq iste'mol qilishga va investitsiyalarga imkon beradi

Iqtisodiy tsiklni o‘lchashda va tahlil qilishda ba’zi asosiy formulalar va ko‘rsatkichlar ishlatiladi.

1. **(yalpi ichki mahsulot)** iqtisodiy tsiklning o‘sishi yoki pasayishini o‘lchash uchun eng muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan YaIM (Yalpi Ichki Mahsulot) hisoblanadi.

$$YaIM=C+I+G+(X-M)$$

- **C** — iste’mol xarajatlari
- **I** — investitsiyalar
- **G** — davlat xarajatlari
- **X** — eksport
- **M** — import

Inflyatsiya darajasi

Inflyatsiya darajasi iqtisodiy davrda narxlarning o‘sish tezligini ko‘rsatadi.

$$Inflyatsiya=\frac{Yangi\ narxlar\ indeksi-Eski\ narxlar\ indeksi}{Eski\ narxlar\ indeksi}\times 100$$

Ishsizlik darajasi

Iqtisodiy tsiklning inqiroz bosqichida ishsizlik darajasi ortadi. Ishsizlik darajasini o‘lchash uchun quyidagi formula ishlatiladi:

$$Ishsizlik\ darajasi=\frac{Ishsizlar\ soni}{Mehnat\ kuchi}\times 100$$

Hayotiy Misollar

✓ **Buyuk Depressiya (1930-yillar)**

1929–1939 yillarda jahon iqtisodiyotida yuz bergan Buyuk depressiya davrida ko‘plab sanoat korxonalari yopildi, ishsizlik darajasi oshdi, va jahon iqtisodiyoti jiddiy inqirozga yuz tutdi. Bu davrda ishlab chiqarish sezilarli darajada kamaydi, inflyatsiya past bo‘ldi, hamda Amerika va boshqa rivojlangan davlatlarda iqtisodiy inqirozning

barcha ijtimoiy oqibatlari yuzaga keldi. Bu davrda YaIMning past darajasi va yuqori ishsizlik iqtisodiy tsiklning inqiroz bosqichini aniq ko‘rsatdi.

✓ **2008 yildagi global moliyaviy inqiroz**

2008 yilgi global moliyaviy inqirozning boshlanishi, ayniqsa, AQShning ipoteka bozorida yuz bergan muammolar bilan bog‘liq edi. Inqirozning jahon miqyosida tarqalishi iqtisodiy o‘sishning to‘xtashiga, iqtisodiy pasayish va ishsizlikning kuchayishiga olib keldi. Bu davrda bir qancha mamlakatlar, shu jumladan, AQSh va Yevropa, iqtisodiy tsiklning pasayish (recessiya) bosqichida bo‘lishdi.

✓ **O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanishi**

O‘zbekiston iqtisodiyoti ham ma’lum davrda turli iqtisodiy tsikllarni boshdan kechirgan. Misol uchun, 2000-yillarning boshida o‘tkazilgan iqtisodiy islohotlar O‘zbekistonni iqtisodiy tiklanish bosqichiga olib keldi, bunda yaqin atrofdagi mamlakatlardagi barqaror o‘sish ham ta’sir ko‘rsatgan. Ammo pandemiya davrida (2020) global iqtisodiy inqiroz ham O‘zbekiston iqtisodiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatgan, bu esa mamlakatning iqtisodiy tsiklni boshqarish va inqirozga qarshi choralar ko‘rish zaruratini yanada oshirdi.

Iqtisodiy Tsiklni Yumshatish uchun Davlat Siyosati

❖ **Fiskal siyosat**

Davlat fiskal siyosati orqali iqtisodiy tsiklni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi. Davlat xarajatlarini ko‘paytirish va soliqlarni kamaytirish orqali iqtisodiy inqiroz bosqichida talabni oshirish mumkin.

❖ **Monetar siyosat**

Markaziy banklar iqtisodiy tsiklni boshqarishda monetar siyosatni amalga oshiradi. Iqtisodiy inqiroz yoki pasayish davrida pul massasi oshiriladi, foiz stavkalarini kamaytirish orqali investitsiyalarni va iste’molni rag‘batlantirishga harakat qilinadi.

Iqtisodiy faoliyat har doim bir tekisda emas, balki ko‘tarilish va pasayishlar bilan kechadi. Ushbu davriy o‘zgarishlar iqtisodiy tsikllar deb ataladi. Ular ishlab chiqarish, bandlik, inflyatsiya va investitsiya ko‘rsatkichlarida o‘z aksini topadi. Iqtisodiy tsikllarni tushunish, ularni keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash va oqibatlarini tahlil qilish davlatlar uchun muhim ahamiyatga ega, chunki bu orqali iqtisodiy siyosatni rejalashtirish va barqarorlikni ta’minlash mumkin.

Iqtisodiy tsikllarning sabablari

Iqtisodiy tsikllar turli ichki va tashqi omillar ta'sirida yuzaga keladi:

Ichki omillar:

•Pul-kredit siyosatidagi o‘zgarishlar (foiz stavkalari, pul massasining o‘zgarishi).

•Investitsion faollik darajasi.

•Ishlab chiqarish texnologiyasidagi yangiliklar.

Tashqi omillar:

•Xomashyo narxlarining o‘zgarishi (neft, gaz, don).

•Global iqtisodiy inqirozlar yoki moliyaviy bozorlar inqirozi.

•Geosiyosiy beqarorlik (urushlar, sanksiyalar va h.k.).

Iqtisodiy tsikllarning oqibatlari

•Iqtisodiy tsikllar har xil ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarga olib keladi:

•Musbat oqibatlar (o‘sish davrida): ish o‘rinlari ko‘payadi, daromadlar ortadi, investitsiyalar faollashadi.

•Salbiy oqibatlar (inqiroz davrida): ishsizlik ortadi, inflyatsiya yoki deflyatsiya yuzaga keladi, ijtimoiy norozilik kuchayadi, davlat xarajatlari ko‘payadi.

Xulosa

Maqolada iqtisodiy davrlar (tsikllar) ning mohiyati, ularning turlari, sabab va oqibatlari yoritildi. Iqtisodiy tsikl, o‘z navbatida, ko‘tarilish, cho‘kish, inqiroz va tiklanish bosqichlaridan iborat. Har bir bosqichning iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’siri va ularning ijtimoiy hayotga ta’siri muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, iqtisodiy tsikllarning sabablari va omillari, jumladan, talab va taklif nomutanosibligi, investitsiya faoliyati va tashqi iqtisodiy sharoitlar tahlil qilindi. Buyuk depressiya va 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz kabi tarixiy misollar orqali iqtisodiy tsikllarning oqibatlari ko‘rsatildi. O‘zbekiston iqtisodiyoti misolida, davlat siyosati va iqtisodiy islohotlar yordamida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan choralar ham yoritildi. Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy tsikllarni to‘g‘ri tushunish va boshqarish, iqtisodiy barqarorlikni saqlash uchun zarurdir. Davlat siyosati va samarali iqtisodiy choralarning muhimligi ta’kidlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. **Keynes, J. M.** (1936). *The General Theory of Employment, Interest, and Money.* Macmillan.

2. **Mankiw, N. G.** (2016). *Principles of Economics* (7th ed.). Cengage Learning.

3. **Blanchard, O.** (2009). *Macroeconomics* (5th ed.). Pearson.

4. **Islambekov, A. S.** (2020). *Iqtisodiy tsikllar va O‘zbekiston iqtisodiyoti.* Tashkent: Economic Publishing.

5. **O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki** (2021). *Iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy siyosat.* Tashkent: Markaziy Bank nashriyoti.

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAHALLALARDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING O‘RNI

Axunov Muhammadamin Abduvasitovich
Andijon davlat texnika instituti “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Phone: +998972736877

Annotatsiya: Maqolada yangilanayotgan O‘zbekistonda mahallalarda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yosh avlodni zamonaviy bilimlarga ega bo‘lgan raqobatbardosh kadrlar qilib shakllanishlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o‘rni va ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar tahlil qilingan. Shu bilan birga maqolada ahamiyatga molik mulohazalar va takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: mahalla, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, axborot asri, internet, mahalla, raqamli iqtisodiyot, korporativ veb-sayt, telegram bot, mobil ilova.

Yangi O‘zbekistonimizning barqaror va samarali iqtisodiyotini shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining natijalarini namoyon etmoqda. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ta’lim sifatini oshirish masalalariga alohida ahamiyat qaratilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan inqilobiy islohotlar jarayonlarida yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash uchun ularning axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatlarini oshirish kunning dolzarb vazifalaridan bo‘lib bormoqda.

Hozirgi kunda jamiyatimiz taraqqiyotining barcha sohalari zamirida axborot kommunikatsiya texnologiyalari yotadi. Bugungi kunda qaysi bir sohani olmaylik uning rivojining zamirida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yotadi. Mahallalar, oilalar yoshlar tarbiyasining o‘chog‘i hisoblanadi. Yoshlar, asosan, shu joylarda toblanadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobida “Biz o‘z oldimizga O‘zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, ... islohotchi bo‘lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur” deb ko‘rsatilib o‘tilgan [1-23 b.]. Ayniqsa, yangi kelajak avlod va uning qobiliyatlarini bunyodkorlik ruhida shakllantirish hamda rivojlantirishning imkoniyatlari va amaliyoti bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.